

„HUQUQIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINING ASOSIY TUSHUNCHALARI



dots: Davron Ziyadullaev



ARXIV.UZ Reja

1. Huquqiy axborot tizimlarining asosiy vazifalari.

2. Huquqiy axborotlar tasnifi:
normativ va normativ bo`lmagan huquqiy axborot.

3. Lex.uz bazasining maqsadi va afzalligi.

Huquqiy axborot tizimlarining asosiy vazifalari.

- Huquqiy axborotlarni yig`ish va ular huquqiy axborot tizimlari banklarini yaratish.
- Axborotlarini saqlash, kerak bo`lganda qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritish.
- Axborotlarga so`roqnomaga bo`yicha zaruriy axborotlarni qidirish, ular asosida hisobotlar tayyorlash qarorlar qabul qilish.
- Axborot bazalarini banklardan kompyuter telekommunikatsiya orqali masofadan turib foydalanish.

Huquqiy axborot tizimlari

Huquqiy informatika —bu yuridik faoliyat sohasidagi axborot jarayonlarining qonuniyatlari va xususiyatlari, ulami avtomatlashtirish, yuridik faoliyatni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda huquqiy vazifalarni hal qilish uchun huquq fanlari nazariyasi va metodologiyasi, matematika, informatika va mantiq, vosita va usullaridan kompleks foydalanish negizida yaratiladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tuzilishi va ulardan foydalanish usullari haqidagi fanlararo bilim sohasidir.



«Informatika huquqi» (yoki kompyuter huquqi) tushunchasi adabiyotlarda nisbatan yaqinda, jamiyatda hisoblash texnikasi va informatikaning jadal rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi. U axborotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi hisoblash tizimlaridan (hisoblash markazlari, xizmatlari, axborot-qidirish tizimlari va boshqalar) foydalanish jarayonida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga bevosita taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi doirasida informatika kodeksini va jamiyatdagi hisoblash tizimlarining ishini optimallashtirishga yo'naltirilgan boshqa huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bizning nazarimizda, informatika huquqi yoki kompyuter huquqiga hozirgi ko'rinishida huquqiy informatikaning aspekti sifatida qaralishi mumkin. Ammo istiqbolda bu bilim sohasi huquqiy informatikadan ajralib chiqishi va yurisprudensiyaning mustaqil yo'nalishini tashkil etishi mumkin. Binobarin, huquqiy informatika mustaqil bilim sohasi sifatida huquq, huquq tizimi va umuman yuridik faoliyatga axborot nuqtai nazaridan, yaxlit huquqiy-axborot tuzilmalari sifatida qaraydi va o'rganadi. Huquqiy hodisalar va jarayonlarga informatsion yondashuvdan hamda huquqni rivojlantirishning asosiy aspektlaridan kelib chiqib, huquqiy informatika fanining predmeti doirasida huquqiy voqelikni axborotlashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan vazifalarning ikki turkumini ajratish mumkin

Huquqiy informatika, davlat va huquq nazariyasida hamda umumiy, “katta informatika”da o'z ildizlariga ega bo'lgan holda, huquqqa va yuridik faoliyatning barcha sohalariga mustaqil yondashadi; u huquq va huquqiy mexanizmlar sohasidagi umumiy va muayyan axborot muammolari va vazifalarini tadqiq qiladi. Huquqiy informatika ma'lum huquqiy tizimlar, hodisalar va jarayonlarni yangi nuqtai nazardan - umumlashtirilgan axborot pozitsiyalari nuqtai nazaridan o'rganish, ularni yaxlit bir butun axborot tuzilmasi ko'rinishida tasavur qilish imkonini beradi. Huquqiy informatikaning ilmiy maqomi va sohasiga aniqliklar kiritib borilmoqda. Huquqiy informatika hali mustaqil fan shakliga kirgani yo'q. U nisbatan quyi pog'onada - fanlararo bilim sohasi pog'onasida turadi. Huquqiy informatikani qator turdosh ilmiy yo'nalishlardan farqlay bilish zarur. Biroq bu uning ilmiy va amaliy ahamiyatini kamaytirmaydi. Chunonchi, huquqiy informatikani «Axborot huquqi» kursidan chegaralash lozim. Bu kursning vazifasi axborot va axborotlashtirishga doir qonun hujjatlarini o'rganishdan iborat. Mustaqil axborot fani - «Kompyuter savodxonligi kursi» o'rta maktab o'quv fanlari qatoriga kiritilgan va mamlakatning barcha oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan yuridik o'quv yurtlarida ham o'qitiladi.



Huquqiy informatika fani nisbatan yaqinda paydo bo'lganiga qaramay, O'zbekistonning huquq sohasini axborotlashtirish borasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ular jumlasiga: respublika huquqiy axborot markazlari va tizimlarining tashkil etilishi; axborot va axborotlashtirish haqidagi qonun hujjatlarining chiqarilishi; bilim tizimlarining yaratilishi; matematika va informatika kurslarining kiritilishi; informatika sohasida xalqaro miqyosga chiqilishi kiradi.



E'tiboringiz uchun
rahmat

